

JOURNAL OF TRANSPORT



ISSUE 2, 2024 Vol. 1
ISSN: 2181-2438



RESEARCH, INNOVATION, RESULTS



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university



JOURNAL OF TRANSPORT
RESEARCH, INNOVATION, RESULTS

ISSN 2181-2438
VOLUME 1, ISSUE 2
JUNE, 2024



jot.tstu.uz

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

JOURNAL OF TRANSPORT

SCIENTIFIC-TECHNICAL AND SCIENTIFIC INNOVATION JOURNAL

VOLUME 1, ISSUE 2 JUNE, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

SAID S. SHAUMAROV

Professor, Doctor of Sciences in Technics, Tashkent State Transport University

Deputy Chief Editor

Miraziz M. Talipov

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Tashkent State Transport University

Founder of the scientific and technical journal “Journal of Transport” – Tashkent State Transport University, 100167, Republic of Uzbekistan, Tashkent, Temiryo‘lchilar str., 1, office: 465, e-mail: publication@tstu.uz.

The “Journal of Transport” publishes the most significant results of scientific and applied research carried out in universities of transport profile, as well as other higher educational institutions, research institutes, and centers of the Republic of Uzbekistan and foreign countries.

The journal is published 4 times a year and contains publications in the following main areas:

- Business and Management;
 - Economics of Transport;
 - Organization of the Transportation Process and Transport Logistics;
 - Rolling Stock and Train Traction;
 - Infrastructure;
 - Research, Design, and Construction of Railways, Highways, and Airfields; Technology and Organization of Construction, Management Problems;
 - Water Supply, Sewerage, Construction Systems for Water Protection;
 - Technosphere Safety;
 - Power Supply, Electric Rolling Stock, Automation and Telemechanics, Radio Engineering and Communications, Electrical Engineering;
 - Materials Science and Technology of New Materials;
 - Technological Machines and Equipment;
 - Geodesy and Geoinformatics;
 - Car Service;
 - Information Technology and Information Security;
 - Air Traffic Control;
 - Aircraft Maintenance;
 - Traffic Organization;
 - Operation of Railways and Roads;
-

Tashkent State Transport University had the opportunity to publish the scientific-technical and scientific innovation publication “Journal of Transport” based on the Certificate No. 1150 of the Information and Mass Communications Agency under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. Articles in the journal are published in Uzbek, Russian and English languages.

U.Kh. Abdullaev, S.I. Kandakharov, D.T. Sharipova, N.B. Rakhimova	
<i>Porosity properties and some properties of cement-concretes with complex modifiers</i>	<i>65</i>
S.A. Ahmadov, D.V. Khaydarova, G.A. Sulemanova	
<i>Disposal of concrete at the construction site during the renovation of urbanized areas</i>	<i>70</i>
D. Butunov, S. Abdukodirov	
<i>Effective organization of train movement taking into account the costs of electrical energy</i>	<i>73</i>
E.B. Joldasbaev	
<i>Relationship of rheological properties bitumen with empirical Ring and Ball softening point test</i>	<i>79</i>
A.A. Khodjaev, I.S. Karimjonov	
<i>Comparative analysis of the spatial rigidity of a multi-storey reinforced concrete frame building with foam aerated concrete walls and new frame-sheathing envelope structures</i>	<i>83</i>
R.F. Urakov	
<i>Issues of the use of securities in the financing of the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan</i>	<i>90</i>
U.Kh. Abdullaev, S.I. Kandakharov, D.T. Sharipova, N.B. Rakhimova	
<i>Studying the properties of cement concrete with complex additives based on modern superplasticizers and fillers</i>	<i>94</i>
G.A. Samatov, I.Kh. Absattorov, K.Sh. Matrasulov	
<i>Geo-location of logistics centers and methods of their justification: a systematic analysis of the literature</i>	<i>98</i>
R.G. Samatov, A.S. Rakhmanov, N.H. Tursunov	
<i>Increasing the traffic safety of vehicles on the example of a real intersection .</i>	<i>112</i>
E. Abdullaev	
<i>Determining the impact of serving requests with a default sequence on server performance</i>	<i>116</i>
G.E. Pulatova	
<i>Processes of strategic planning of enterprise activity in the market of passenger transport services</i>	<i>120</i>



Geo-location of logistics centers and methods of their justification: a systematic analysis of the literature

G.A. Samatov¹a, I.Kh. Absattorov¹b, K.Sh. Matrasulov¹c

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

Choosing suitable locations for logistics centers is as important as determining the need for them. In order to find optimal solutions for the location of logistics centers, it is necessary to define clear criteria and choose the right methodology. In this scientific article, a systematic analysis of the relevant literature (books, dissertations, scientific articles and theses) on the topic is carried out in order to determine the level of study of the topic of geo-location of logistics centers and methods of their justification, to assess the relevance of the topic and to determine the ways to achieve the set goal. increased. During the literature review, 25 research papers containing the problem of location selection from the studies on logistics centers were selected based on certain criteria. The literature review was reviewed in the following sequence: at the first stage, the theoretical researches in solving the problem were considered, and at the second stage, the criteria used in the evaluation process were considered. Based on the collected data, decision-making methods and frequency of use of decision-making criteria were also presented.

Keywords:

logistics centers, location, literature analysis, criteria, methods.

Logistika markazlari geojoylashuv joyini aniqlash va ularni asoslash usullari: adabiyotlar tizimli tahlili

Samatov G.A.¹a, Absattorov I.X.¹b, Matrasulov Q.Sh.¹c

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Logistika markazlari uchun mos joylarni tanlash ularga bo'lgan ehtiyojni aniqlash kabi muhimdir. Logistika markazlari joylashuv joylarini aniqlashda optimal yechimlarni topish uchun aniq mezonlarni aniqlash va to'g'ri metodologiyani tanlash kerak. Ushbu ilmiy maqolada logistika markazlari geojoylashuv joyini aniqlash va ularni asoslash usullari mavzusining o'r ganilganlik darajasini aniqlash, mavzuning dolzarbligini baholash va belgilangan maqsadga erishish yo'llarini aniqlab olish uchun mavzuga tegishli adabiyotlarning (mavzuga oid kitoblar, dissertatsiyalar, ilmiy maqola va tezislar) tizimli tahlili amalga oshirildi. Adabiyotlarni o'r ganish davomida logistika markazlari haqidagi tadqiqotlardan joy tanlash muammosini o'z ichiga olgan 25 ta tadqiqot ishi ma'lum bir mezonlar asosida tanlab olindi. Adabiyotlar sharhi quyidagi ketma ketlikda ko'rib chiqildi: birinchi bosqichda masalani hal qilishda nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar, ikkinchi bosqichda baholash jarayonida qo'llaniladigan mezonlar ko'rib chiqildi. To'plangan malumotlar asosida qaror qabul qilish usullari va qaror qabul qilish mezonlaridan foydalanish chastotasi ham taqdim etildi.

Keywords:

logistika markazlari, joylashuv, adabiyotlar tahlili, mezonlar, usullar.

1. Kirish

Transport-logistika tizimini ishlab chiqishda muhim o'rinni logistika markazini yaratish dasturi egallaydi, uning g'oyasi moddiy, axborot, moliyaviy oqimlar va resurslarni umumiyligi logistika boshqaruv tizimi orqali birlashtirishda transport jarayoni ishtirokchilari uchun keng qamrovli transport xizmatlarini amalga oshirish taqozo etiladi. Jahan iqtisodiyotining globallashuvi davrida ta'minot zanjirlarining samaradorligi va kelajakda global bozorda vijudga kelishi mumkun bo'lgan o'zgarishlar va

muammolarga javob beradigan logistika markazlarini rivojlantirishga bugungi kunda dunyo bo'y lab katta e'tibor qaratilmoqda. Logistika markazlarining paydo bo'lishi biznes jarayonlarining globallashuvi, biznesning yangi yechimlari va o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini izlash bilan rag'batlanirildi [1].

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozimki adabiyotlarda "logistika markazi" tushunchasi uchun umumiyligi nomlar yoki ta'riflar berilmagan. Logistika markazining eng keng

a  <https://orcid.org/0000-0001-6479-6173>

b  <https://orcid.org/0000-0002-5968-0990>

c  <https://orcid.org/0009-0004-3300-9228>



qamrovli ta'rifi butun Yevropa bo'ylab 80 ga yaqin transport va logistika markazlarining birlashmasi bo'lgan EUROPLATFORMS tomonidan takomillashtirilgan [2]. EUROPLATFORMS logistika markazini quyidagicha ta'riflaydi: "Logistika markazi - bu belgilangan hududdagi obekt bo'lib, uning doirasida transport, logistika va tovarlarni taqsimlash bilan bog'liq barcha faoliyatlar - milliy va xalqaro tranzit uchun turli operatorlar tomonidan tijorat asosida amalga oshiriladi. Operatorlar bu yerda qurilgan bino va inshootlarning (omborlar, tarqatish markazlari, terminallar, ofislar, yuk mashinalari xizmatlari va boshqalar) egalari yoki ijarrachilar bo'lishi mumkin" [3]. Logistika markazlariga bo'lgan ehtiyojning oshib borayotganligini inobatga olgan holda aytishimiz mumkunki logistika markazini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilingandan keyin, birinchi savol logistika markazi uchun eng munosib joyni aniqlash hisoblanadi. Joy tanlash uchun usullar va qaror mezonlari joy tanlash muammolarini bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Logistika markazlarining joylashuvini tanlash uni tashkil etishga katta miqdorda sarmoya kiritilishi va o'bektlarning mavjudligi bilan ham strategik va uzoq muddatli qaror hisoblanadi. 1994 yilga kelib logistiqa markazlarining joylashuv joyini tanlash logistika markazini tashkil etishda ta'sir qiluvchi mezonlar orasida qaror qabul qilishning hal qiluvchi elementi sifatida ko'rla boshlandi [4]. Joyni tanlash nafaqat operatsion faoliyatning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi [5], balki ta'minot zanjiri boshqaruvi va transport tarmog'ini rejalashtirishga ta'sir ko'rsatishi natijasida butun tarqatish tizimlariga ta'sir qiladi [6,7]. Natijada, logistika markazining optimal joylashuvni transport xarajatlarini kamaytirishga, ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi sinxronlashtirishni rag'batlantirishga, transport tizimlarining muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga va umumiy afzalliklarga erishishga olib kelishi mumkin [8]. Yuqorida sanab o'tilgan masalalarning ahamiyatini hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot ishida logistika markazlarining joylashuvni bo'yicha mayjud adabiyotlar tahlil qilingan. Tahlil jarayonida muammoni bayon etish va asoslash usullari, muammoni hal qilish yondashuvlari, qaror qabul qilish usullari va mezonlari,

shuningdek erishilgan natijalar aniqlandi va bayon etildi. Logistika markazi (LM) ning joylashuvni bo'yicha boshqa sharhlardan farqli o'laroq, biz bu yerda ma'lum bir model yoki yechim yondashuvini ishlab chiqishga e'tibor qaratish o'rniga, LMlar joylashuvini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini nazariy va amaliy yechimlari bo'yicha erishilgan natijalarni birlashtirdik. O'rghanish natijalari LMlari geojoylashuvini tanlash usullarini o'rghanish va asoslashga qaratilgan. Tadqiqot ishi quyidagicha tashkil etilgan: anotatsiya, kirish, tadqiqot metodologiyasi, muhokama va natija (adabiyotlarni tanlab olish usuli, nashr yillari, davlatlari, foydalilanigan usullar, tahlil bayoni), xulosa va foydalilanigan adabiyotlar.

2. Tadqiqot metodikasi

Logistika markazlari joylashuvini asoslashga qaratilgan adabiyotlar tahlilini o'tkazish uchun biz tanlangan adabiyotlarni tizimli, miqdoriy va sifat jihatdan tavsiflashga qaratilgan usullardan foydalandik. Malum bir mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlilini o'tkazish bu ushbu mavzu bo'yicha qaralayotgan davrgacha amalga oshirilgan ilmiy ishlar va natijalar haqida malumotlarni umumlashtirishda juda muhim vosita sanaladi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda quyidagi mezonlarni etiborga olish lozim:

- adabiyotni ko'rib chiqish savollarini tuzish;
- adabiyotlarni malum mezonlar asosida chegaralash;
- tadqiqotni amalga oshirish uchun adabiyotlarni qidirish bazalarini belgilab olish;
- adabiyotlarni tanlab olish;
- adabiyotlarda mavzuning o'r ganilganlik darajasini baholash;
- tegishli malumotlarni ajratib olish;
- natijalarni tahlil qilish
- natijalarni sharhlash va tadqiqot yechimini maqolada bayon etish [9].

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlarni etiborga olgan holda tadqiqot ishini amalga oshirishning dastlabki rejalashtirilgan usulini quyidagi 1-ramda ko'rsatib o'tilgan.




1-rasm. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish jarayonlarining ketma-ketligi (mualif ishlanmasi)

Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlilini o'tkazishda tizimlilik va ketma-ketlikni taminlash hamda 1-rasmda berilgan tartibda belgilab olingan ishlarni amalga

oshirish maqsadida 2-rasmda tasvirlangan bosqichlar va yo'naliшlar bo'yicha ishlarni amalga oshirish belgilab olindi





2-rasm. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish mezanzlari asosida tadqiqot ishini bajarishning uch bosqichli sxemasi (mualif ishlanmasi)

3. Muhokama va natija

1. Tadqiqot ishini bajarish uchun “Logistika markzalari geojoylashuvini asoslash” mavzusi tanlab olindi.
- 1.1 Tadqiqot mavzusi bo'yicha dabiyotlar tahlilini amalga oshirish uchun quyidagi tadqiqot savollari shakllantirildi:
 - 1.Logistika markazlarining joylashuv o'rni nima?
 - 2.Logistika markazlarining joylashuv o'rnining umumiy logistika tizimiga ta'siri qanday?
 - 3.Qaysi turdag'i logistika markazlarining joylashuv o'rni eng ko'p va eng kam o'rganilgan?
 4. Logistika markazining joylashuvini tanlash muammosi uchun qanday usullar qo'llaniladi?
 5. Logistika markazining joylashuvini tanlash muammosi uchun qanday mezonlar hisobga olingan?
 6. Logistika markazlarini joylashuv joyini asoslashdagi hozirgi davr qiyinchiliklari nima?
 7. Logistika markazlarini joylashuvini asoslashda eng kam o'rganilgan va tasir doirasini oshib borayotgan tamonlar nima?
- 1.2. Tadqiqot ishini amalga oshirishda to'plangan dabiyotlardan tadqiqot mavzusiga moslarini ajratib olish uchun PRISMA (Preferred Reporting Items of Systematic

reviews and Meta-Analyses) Flow Diagram usuli tanlab olindi. Tadqiqot ishi mavzusini ko'lami va chegaralarini aniqlab olish uchun u bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish judayam muhim sanaladi. Biror bir belgilab olingen mavzu bo'yicha tadqiqot ishini amalga oshirishni boshlagan tadqiqotchilar albatta tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha dabiyotlar tahlilini o'tkazadilar. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirishda ilmiylik va ishonchlikni taminlash maqsadida bir guruh tadqiqotchi olimlar tamonidan 2009-yilda tizimli sharhlar fanidagi bir qancha kontseptual va amaliy yutuqlarni hisobga olgan holda tahlil usullari yangilandi va PRISMA (Tizimli sharhlar va meta-tahlillarning afzal ko'rildigan hisoboti) deb o'zgartirildi. PRISMA mezonlarini birinchilardan bo'lib Moher D, Liberati A, Tetzlaff J va boshqalar tamonidan asoslab berildi [10]. Ushbu mezonlarga amal qilish va tadqiqot ishida ishonchlikni taminlash maqsadida mualliflar quyida 1-jadvalda keltirilgan mezonlarni kiritildilar.

- 1.3. To'plangan adabiyotlarni ajratib olishda 1-jadvalda ko'rsatilgan mezonlardan foydalanildi.

1-jadval

Mezon	Kritish va istisno qilish mezonlari	Qaror
Oldindan belgilangan kalit so'zlar bir butun sifatida yoki hech bo'limganda sarlavhada, kalit so'zlarda yoki maqolaning mavhum qismida mavjud bo'lganda		kiritish
Adabiyot ilmiy ko'rib chiqiladigan jurnalda chop etilgan		kiritish
Adabiyot o'zbek, rus, ingliz va turk tillarida yozilgan bo'lsa		kiritish
Adabiyot kamida bitta tadqiqot savoliga javob bergan taqdirda		kiritish
Adabiyotda bayon etilgan muammo va natijalar boshqa adabiyotni takrorlasa	istisno qilish	
Adabiyotda foydalanilgan malumotlar manbalari va tadqiqot usulni ilmiy asoslanmagan bo'lsa	istisno qilish	
Bir biridan ko'chirilgan yoki ikkita bir xil adabiyotlar	istisno qilish	
Adabiyotda nashir qilingan jurnal yoki ilmiy baza haqida malumot ko'rsatilmagan bo'lsa	istisno qilish	
1990 yilgacha nashr etilgan adabiyotlar	istisno qilish	

Manba: Mengist va boshqalar. [11] tamonidan adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan ilmiy maqolasida ko'rsatilgan mezonlardan foydalilanigan xolda mualliflar tomonidan mavzuga moslashtirildi.




2. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun adabiyotlarni to'plashda Science Direct, Scopus, ResearchGate va IEEE Xplore Digital Library ma'lumotlar bazalari va boshqa ochiq manbalardan foydalanildi. Ushbu ma'lumotlar bazalaridan adabiyotlarni qidirishda yahlit tadqiqot mavzusi bo'yicha qidirilganda tegishli adabiyotlar chiqmaganligi hamda logistika markazlari terminalogiyasi bo'yicha adabiyotlarda aniq o'zgarmas ta'srif mavju bo'lmaganligi sababli va ushbu tadqiqot logistika markazlarini joylashuv joyini asoslash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan modellar va usullarni aniqlashga qaratilganligi sababli quyidagi kalit so'zlardan foydalanildi: logistika markazi, logistika markazini tashkil etishda ta'sir qiluvchi mezonlar, logistika qishlog'i, logistika

platfo'rmasi, transport-logistika markazi va logistika firmalari.

2.1. Yuqorida ko'rsatilgan malumotlar bazalaridan foydalangan holda mualliflar birinchi bosqichda 1670 dan ortiq ilmiy adabiyotlarni to'pladilar (Science Direct-103, Scopus-206, ResearchGate-406, IEEE Xplore Digital Library-314 va boshqalar-653).

2.2. To'plangan adabiyotlar 1-jadvalda belgilab olingen mezonlar bo'yicha va PRISMA Flow Diagram usuli yordamida tekshirilgandan keyin 1645 ta adabiyot chiqarib tashlandi va 25 ta adabiyot tahlil qilish uchun tanlab olindi. (3-rasmga qarang).



3-rasm. PRISMA Flow Diagram (PRISMA usuli asosida muoliflar tamonidan tuzulgan)

3. Adabiyotlar tahlinini amalga oshirayotganda tahlil qilinayotgan adabiyotning sifatini baholovchi ko'rsatgichlar yordamida tekshirilishi kerak. Adabiyotlar tizimli tahlilini amalga oshirish to'rtta sifatni baholash savoliga asoslangan quyidagi mezonlar yordamida baholandi:

1. Ko'rib chiqilayotgan adabiyot kiritish va istisno qilish mezonlari asosida tekshirilganmi?
2. Adabiyotlarni qidirish mavzu bo'yicha barcha tegishli

tadqiqotlarni qamrab olganlik darajasi tekshirilganmi?

3. Tanlangan adabiyotda tadqiqot sifati/haqiqiyligini baholaydigan ko'rsatgichlar mavjudligi o'rganilanmi?

4. Adabiyotda tadqiqot savollariga yetarli darajada javoblar ko'rsatilganmi[12]?

Yuqorida takidlangan baholash mezonlari bo'yicha tahlil qilish uchun tanlab olingen adabiyotlarni 2-jadvalda ko'rsatilgan tartibda turlarga ajratib chiqik


2-jadval

Tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlar			
Adabiyot turi		Soni	Ulushi
Maqolalar	Ilmiy jurnal Ilmiy konferensiya	15 2	60% 8%
Dissertatsiyalar	Magistrlik PhD Doktorlik	6 1 1	24% 4% 4%
Umumiy		25	100%

Ushbu adabiyotlar tahlilida 6 ta magistrlik, 1 ta PhD, 1 ta doktorlik dissertatsiyasi va 17 ta ilmiy maqolaldan (15 ta ilmiy jurnal va 2 ta konferensiya) iborat 25 ta tadqiqot ishi o'rganildi. Tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlarning


nashr yillari adabiyotlar tahlili amalga oshirilgan davrni belgilab olish va qaysi yillarda eng ko'p adabiyot va eng kam adabiyotlar nashr qilinganligini anqilash maqsadida o'rganib chiqildi va 4-rasmda tasvirlandi.



**4-rasm. Tahlil qilingan adabiyotlarning nashr qilingan yillari**


4-rasmdan malum bo‘ladiki tahlil qilish uchun tanlab olingan adabiyotlarning eng ko‘p qismi ya’ni 16% 2019-yilga to‘g‘ri keladi va tadqiqot ishi 2003-2023 yillarni qamrab olgan. Shuningdek mualliflar adabiyotlar tahlilining ishonchligini taminlash maqsadida tadqiqot ishida turli davlatlar tadqiqotchilarini tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ko‘rib chiqishni niyat qilganlar. Turli davlatlar ilmiy ishlarni ko‘rib chiqishni niyat qilganlar. Turli davlatlar ilmiy tadqiqotchilarini tomonidan yozilgan ilmiy ishlarni o‘rganish

tadqiqot mavzusiga ko‘p tomonlama yondoshuvni ta’minlaydi. Quyida 5-rasmda tahlil qilingan adabiyotlarning davlatlar ulushi tasvirlangan. 5-rasmdan ko‘rinib turibdiki ushbu adabiyotlar tahlilini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ichida dunyoning 12 ta davlati olimlari tomonidan LMLari joylashuviga oid ilmiy ishlar o‘rganib chiqilgan, ularning eng ko‘p ulushi 32 % Turkiya va 20% Xitoylik olimlar ishlariiga to‘g‘ri keladi.

**5-rasm. Tahlil qilingan adabiyotlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi.**

Tadqiqot ishida muammoning bayon etilishi va uni yechishda qo‘llanilgan usullar erishilgan natijaning ishonchligini ta’minlovchi jihatlar hisoblanadi. Mualliflar

tahlil qilingan adabiyotlarning tadqiqot muammosi LMLari uchun joy tanlash masalasi bo‘lganligi sababli muammoni yechishda foydalanilgan usullarni o‘rganib chiqdilar.


**6-rasm. Adabiyotlarda LM lar uchun joy tanlash muammosini yechishda qo‘llanilgan usullar**

6-rasmda ko'rsatilgan usullarning aksariyati ko'p yoki bir mezonli qaror qabul qilish usullari oilasiga mansub bo'lib, ular ichida eng ko'p qo'llanilish ko'rsatgichi AHP (Analytic Hierarchy Process) analitik ierarxiya jarayoni 50% holatga to'g'ri kelgan. Mavzuni nazariy jihatdan tahlil qilishda intervyyu/anketa usuli ommaviy tarzda eng ko'p qo'llanilar ekan. Yuqorida keltirilgan malumotlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, tahlil qilish uchun tanlab olingan adabiyotlarning ishonchlilik darajasi mavzuni yoritib berishda barcha sifat mezonlariga to'g'ri keladi.

3.1 Tanlab olingan adabiyotlarni ko'rib chiqish jarayonida mualliflar LM lar uchun joy tanlash masalalarini yechishga bo'lgan ikki xil yondoshuvni aniqladilar. Bular:

1-yondashuv. Masalani nazariy jihatdan o'rGANIB joylashuv joyini tanlashda etibor qaratish lozim bo'lgan mezonlarni ko'rsatib o'tish usuli;

2-yondashuv. Aniq tegishli mezon va parametrlar asosida muayyan hudud uchun LM ni joylashtirish masalasini ko'p mezonli qaror qabul qilish usullaridan



7-rasm. Tekshirilayotgan logistika markazlariga ko'ra kompaniyaning joylashuvi to'g'risidagi qarorga ta'sir qiluvchi eng muhim qattiq omillar.


Yashil – "juda muhim"; qizil "muhim"

LMlari joylashuv joyini tanlashda anketa usulidan Ho Thi Thu Hoa va boshqalar [14] ham foydalangan bo'lib, ular so'rovnomani Vietnam logistika xizmati provayderlaridan ularning Xoshimin shahrida logistika markazining tavsiya

foydalanib yoki matematik hisoblashlar yordamida aniqlash.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlarning 5 tasi 1-yondashuv o'yicha 20 tasi esa ikkinchi yondoshuv bo'yicha yozilgan. Dastlab tahlilni 1-yondashuv bo'yicha yozilgan adabiyotlardan boshlaymiz.

3.2. Waldemar W va boshqlar [13] LM joylashuvi to'g'risidagi qarorga qanday omillar ta'sir qilishini aniqlash, shuningdek, kompaniyalar va mahalliy ma'muriyat bo'linmalari o'rtasidagi hamkorlik sifatini baholash uchun anketa so'rovlarini usulidan foydalanishgan. Anketa savollari 7 ta yirik logistika markazlari hodimlari o'rtasida o'tkazilgan bo'lib, ishtiroychilarga 26 ta omildan (14 ta qattiq va 12 ta yumshoq) markaz joylashuviga ta'sir qiluvchi omillarni tanlashlari vazifasi qo'yilgan. Ushbu anketa so'rovi shahar LM joyini tanlashga qaratilgan va ishtiroychilar tomonida 7 va 8-rasmarda tasvirlangan omillar asosiyлari deb topilgan. Shuningdek bu omillar ta'sir darajasiga ko'ra qattiq va yumshoq omillarga ajratilgan.



8-rasm. Tekshirilayotgan logistika markazlariga ko'ra kompaniyaning joylashuvi to'g'risidagi qarorga ta'sir qiluvchi eng muhim yumshoq omillar.

Yashil – "juda muhim"; qizil "muhim"

etilgan joylashuvi bilan bog'liq muhim masalalar bo'yicha birlamchi ma'lumotlarni to'plash uchun ishlab chiqganlar. Anketa so'rovini amalga oshirish shakli 3-jadvalda ko'rsatilgan.

3-jadval

Anketa so'rovi va ma'lumotlarni tahlil qilish tafsilotlari

N o.	Elementlar	Tarkib
1	So'rov usuli	Anketa so'rovi
2	Namuna olish usuli	Tasodifiy bo'lmagan tanlov
3	Baholash usuli	Miqdoriy, sifat jihatidan -Ha/Yoq - Ko'p tanlov -ochiq-yopiq
4	Javob shakllarining turlari	iyul, 2019
5	So'rov vaqtি	Logistika xizmatlarini bilan shug'ullanuvchilar: 46
6	Respondentlar soni	SPSS (Statistic Package for Social Science)
7	Ma'lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish vositalari	Cronbach Alpha factor (α): $0.6 \leq \alpha < 0.7$: qoniqarli $0.7 \leq \alpha < 0.8$: yaxshi $0.8 \leq \alpha \leq 1.0, \alpha \geq 0.8$: juda yaxshi
8	Ishonchlilik tahlili	

Mualliflar ma'lumotnomalar asosida Xo Chi Mindagi

logistika markazlari uchun mos joyni tanlash uchun quyidagi



asosiy mezonlarni tahlil qilganlar:

- logistika markazi turli transport turlaridan foydalanish uchun yo'l tarmoqlariga ega bo'lishi kerak
- yer va ijara narxi: yangi logistika markazlarini tashkil etish yerning mavjudligi va kelajakda kengaytirish imkoniyatini talab qiladi.
- logistika markazlari shaharlardagi tirbandliklarni kamaytirishga yordam berishi kerak
- inson resurslari: xodimlar malakasi diqqat bilan

- ko'rib chiqilishi kerak
- axborot texnologiyalari uchun infratuzulmaning mavjudligi
- logistika markazlaridan ta'minot manbalari va bozorlarigacha bo'lgan masofa:
- Mamlakat yoki mahalliy hukumatning logistika sohasiga bo'lgan siyosati.

Shuningdek mualliflarning fikriga ko'ra, logistika markazining tegishli joylashuvini tanlash uchun baholash va tanlash bosqichlari 4-jadvaldagi tartibda bo'lishi kerak.

4-jadval

LM larni tashkil etishda tegishli joylarni tanlash uchun baholash, tanlash bosqichlari

N	Qadamlar	Taklif etilgan usullar
1	Joylarni tanlash mezonlarini berish	Hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlar asosida
2	Logistika markazlarining mos joylari bo'yicha tadqiqotlar	GIS (Geografik Axborot Tizimi) dan ekspertlar fikrini o'rganish, optimal transport turlaridan foydalanish imkoniyati
3	Fiziologik joylashuvni filtrlash	Tanlov matritsasini tuzish, a'zolar o'rtasida muhokama qilish
4	Texnik-iqtisodiy asoslarni o'rganish	Dala ekskursiyasi
5	Yaxshi joylarni tanlash	A'zolar o'rtasida muhokama qilish
6	Logistika markazlarini qurish uchun tegishli yerni topish	Muzokaralar uchun yer egasi bilan bog'lanish
7	Logistika markazlarini qurish	

LM lar uchun joy tanlash uzoq muddatli qaror qabul qilish usuli hisoblanadi, ayniqsa gap xalqaro logistika markazi uchun joy tanlash haqida bo'lsa uning murakkabligi kiritiladigan sarmoya va ko'rsatiladigan xizmat sifatidan kelib chiqib anchagina murakkab muammo hisoblanadi. Sabina Kauf, Aleksandra Laskowska-Rutkowska [15] "Bir belbog', bir yo'l" tashhabbusi doirasida Polshada xalqaro logistika markazi uchun joy tanlash masalasini ko'rib chiqganlar. Maqola nazariy xarakterga ega bo'lib unda qo'llanilgan usul - adabiyot manbalarini tahlil qilish orqali manbalarda joy tanlashda ko'p takidlanadigan yer, mehnat va kapitalni hisobga olish omillariga makroiqtirosiy, ekologik va mintaqaviy/milliy rivojlanish strategiyasi ham xisobga olish kerakligini takidlaganlar. Tadqiqot ishi muammosi yechimi sifatida ikkita hudud mos deb tanlab olingan. Joy tanlashda transport turlari tutashadigan va erkin iqtisodiy hududning mavjudligi asosiy hal qiluvchi omil sifatida qaralgan.

LMLar uchun to'g'ri tanlangan joy transport xarajatlarini minimallashtirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi. Mintaqaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda logistika markazini qurish yoki modernizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishda ko'rib chiqish uchun taklif qilingan variantlarni ekspert baholashini o'tkazish kerak. S. F. Kugan [16] tanlangan tasniflash mezonlariga muvofiq logistika markazi uchun joy tanlash variantini ajratib olish misolini ishlab chiqdi. Tanlovnim amalga oshirish quyidagi ketma-ketlikda bo'lishi lozim:

1) ekspert guruhi a'zolarining fikr-mulohazalaridan foydalanib, loyihaning maqsadlariga maksimal darajada

erishiladigan aniq mezon bo'yicha daraja berish;

2) har bir mezonning vaznni aniqlash, buning uchun mezonlarning umumiyligi sonini berilgan mezon darajasiga bo'lish kerak;

3) har bir mezon uchun mumkin bo'lgan variantlarning har birini ball tizimidan foydalangan holda baholash va bunda har bir variant bo'yicha ballar yig'indisi o'nga teng bo'ladi;

4) har bir LM varianti bo'yicha har bir mezonning reytingini hisoblash (mezonning reytingi ma'lum bir mezon og'irligi va muayyan loyiha varianti uchun mezonni baholash omiliga teng);

5) har bir variant bo'yicha reytinglarni jamlash (5-jadval).

Tanlangan mezonlar nuqtai nazaridan, eng maqbul variant - reytinglar yig'indisi maksimal bo'lgan joy logistika markazi uchun tanlanadi. Bunday hisob-kitob mintaqaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda logistika markazi variantini tanlash masalasini hal qilish imkonini beradi.

Logistika infratuzilmasi ob'ektining turini aniqlagandan so'ng, vazn koeffitsientlari bilan yoki bir guruh mezonlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan optimal joy tanlanadi. Ko'pincha samaradorlik markazning eng past umumiyligi qiyatida yoki transport xarajatlarida hisobga olinadi. Variantlarni ko'rib chiqishda mavjud ko'chmas mulk va ob'ekt joylashishi kerak bo'lgan yer maydoni, kommunal xizmatlarning mavjudligi, mintaqaning uzoq muddatli rivojlanish rejasini tahlil qilish, maxsus iqtisodiy zonani yaratish imkoniyati, logistika markazi va mavjud infratuzilma ham baholanishi lozim.

5 -jadval

Tanlangan tasniflash mezonlariga muvofiq logistika markazi variantini tanlash misoli

Mezon	Dara ja	Mezon turi, vazni	1 variant		Variant 2	
			dara ja	reyting	dara ja	reyting
1. Xizmatlar	1	4:1=4	2	2*4=8	4	4*4=16



2. Qoplash maydoni	2	4:2=2	3	3*2=6	2	2*2=4
3. Mulk turi	3	4:3=1,33	3	3*1,33=3,99	1	1*1,33=1,33
4. Hajmiy yaxlidlik	4	4:4=1	2	2*1=2	3	3*2=6
jami			10	19,99	10	27,33

LM joylashuvini tanlashda insonlarning logistika markazlariga bo‘lgan munosabatlarini ham o‘rganish lozim. Shengwei Zhang [17] logistika markazlarini tashkil etishda o‘zgacha yondoshuvga asoslangan tadqiqot ishini amalga oshirgan. U insonlar hissiy omillarning LM joylashuv joyini tanlashga ta’sirini o‘rgangan. Tadqiqot ishi bo‘limlari asosan insoniyat nuqtai nazaridan hissiy omillarni o‘rganish haqida hisobot beradi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi ikkita tadqiqot savoli shakllantirilgan:

1. LMini tanlashga qanday hissiy omillar ta’sir qilishi mumkin?
2. Odamlarning his-tuyg‘ulari logistika markazining

joylashuvini tanlash jarayoniga qanday ta’sir qiladi?

Muallif ushbu savollarga javob topish uchun logistika markazi xodimlari bilan suxbat o‘tkazish, intervyyu usulidan foydalangan. Intervyyu uchun ikkita logistik kompaniyaning masul hodimlari tanlab olingan.

Intervyyu savollari yarim holatda tuzilgan bo‘lib bunday ko‘rimishdagи savol javoblar suxbatdoshning his tuyg‘ulariga qarab umumiy intervyyu savolini shakllantirish imkonini beradi. Intervyyu savollariga berilgan javoblarni o‘rganish natijalarini quyidagi 6-jadvalda tasvirlangan xulosaga kelning.

6-jadval

